



IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI

Turdiyev Urol Mengnor o'g'li

Buxoro davlat universiteti iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)

bo'yicha 2 kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7563635>

Anotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotning nima ekanligi, uning ta'rifi, innovatsiya haqida ma'lumot, iqtisodiyot va innovatsiyaning bir- biriga bog'liqligi, dunyo olimlari va o'zbek olimlarining iqtisodiy innovatsiyani rivojlantirishga qilgan harakatlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya; biznes; mijoz; raqobatbardoshlik; mahsulot; texnologiya.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha samarali mexanizmlar o'z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lmoqda"[1], deya ta'kidlab o'tgan.

Innovatsiya" so'zi lotincha innovationem so'zidan kelib chiqqan bo'lib - "o'zgartirish yoki modernizatsiya qilish" ma'nosini anglatuvchi innovare fe'lidan olingan. Shunday qilib, innovatsiyalarning markaziyliigi va ahamiyati yangilanish bilan bog'liq. Bunday yangilanish faqatgina odamlar qaror qabul qilish uslubini o'zgartira oladigan, standart usullardan voz kechadigan va mavjud me'yor va qoidalar doirasidan tashqarida tanlov qilishni o'rgangan taqdirdagina bo'lishi mumkin.

Innovatsiyalar nazariyasi holatini va korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishni tashkil etish sharoitlarining tahlili ko'rsatishicha, innovatsion faoliyatning samaradorligi u qanchalik to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liq bo'ladi. Muayyan korxonada innovatsion faoliyat jarayonlarni tashkil etishning o'zi jiddiy muammolardan biriga aylanadi. Hozirgi kunda innovatsion jarayonni tashkil etishning ko'plab modellari ishlab chiqilgan bo'lib, ularning har biri korxonada rivojlanishi darajasidan kelib chiqqan holda to'liq yoki qisman foydalanilishi mumkin. Innovatsion faoliyatning nazariy uslubiy asoslari iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lib ular tomonidan turli xil fikrlar bildirilgan. Innovatsiya nazariyasini ishlab chiqishda yana bir texnologik bosqichlarning evolyusiyasi bilan bog'liq muammolarni birinchi marta rus olimi N.D.Kondratiev o'zining "Uzun to'lqinlar nazariyasi" asarida o'z izlanishlari natijasida olingan fikrlarini bildirgan.





Korxonalarining innovatsion rivojlanishning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashning zaruriy sharti ekanligi barchamizga ma'lum. Bu borada P.Drukerning quyidagi fikriga alohida to'xtalib o'tish lozim. Uning fikricha "biznesning asosiy maqsadi mijozlarni jalb qilish bo'lganligi sababli korxonani ikkita asosiy funksiyasi mavjud marketing va innovatsiya" dan iborat deb hisoblaydi. Albatta dunyo iqtisodchi olimlarining innovatsiyaga bergan ta'riflari va yondashuvlari turlicha bo'lib, ularning izlanishlarida o'ziga xoslikni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Innovatsion faoliyat va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishda jahon olimlari bilan bir qatorda yurtimiz iqtisodchi olimlari o'zlarini bir qator tadqiqotlarini olib borishgan. M.Saidovning fikricha, innovatsion faoliyat iqtisodiyotni rivojlantirishga qo'yilmalarning samaraliligi bilan tavsiflanadi, ishlab chiqarishda mavjud bo'lgan oldingi avlod texnikasi va texnologiyasini ancha samarali, ekologik sof va resurslarni tejashga imkon beruvchi ishlab chiqarish vositalari bilan almashtirish jarayonini ifodalaydi. Bu jarayon g'oyaning paydo bo'lishi, uning maqsadini aniqlash va amalga oshirishdan tortib ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sotish va iqtisodiy samara olishgacha bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi.

Shu o'rinda, milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, innovatsiya faoliyatini rivojlantirmay turib, iqtisodiyot raqobatbardoshligiga erishib bo'lmaydi. Innovatsiya atamasining mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qachonki har qanday kashfiyotlar, yangi voqealar, xizmatlar va usullar turlari tarqalishiga qabul qilinsa, o'shanda xalq ommasi tomonidan tan olinadi. Bunda yangilikning joriy etilishi yangilikni qo'llash jarayonini bildiradi va yangilikning tarqatilishiga qabul qilinishi vaqtidan boshlab yangi sifat – innovatsiyaga aylanadi.

Innovatsiyalarning har xil turlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va tarqatishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud va shunga muvofiq ravishda innovatsiyalarni boshqarishda o'ziga xos yondashuvlarni talab qiladi. Binobarin, yangiliklarni tasniflash masalasi nafaqat nazariy, balki sezilarli darajada amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham innovatsiyalarni boshqarish innovatsiyalarning tipologiyasiga, ularning turli muhim asoslari, mezonlari, parametrlari bo'yicha tasnifiga asoslangan bo'ladi.





Innovatsiyalarning yangilikdan farqi shundaki, yangi mahsulot bozorga kiradi, bozor tomonidan qabul qilinadi va kelajakda tijorat qiymatiga ega bo'ladi. Demak, innovatsiya yangilikni amalda qo'llashni anglatadi ya'ni, yangi mahsulot yoki texnologiya yaratilsa, mehnatni tashkil etish yoki boshqarishning yangi konsepsiyasi ishlab chiqiladi va hokazo. Bu yangiliklarning barchasi o'z qo'llanishini topa olmasa, innovatsiya hisoblanmaydi. Yaratilgan yangiliklar innovatsiyalarning qaysi turiga tegishli bo'lmasin, ularni birlashtiradigan umumiy xususiyatlar mavjud. Ushbu xususiyatlarni shakllantirsak, ular bir vaqtning o'zida ko'rib chiqilayotgan mahsulotlarning (xizmatlar, jarayonlar) innovatsiyalar sifatida tan olinishi uchun xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish orqali tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko'maklashish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi. Tadqiqotning vazifalari esa sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish bosqichlarini tadqiq qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash; yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni ko'paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg'or boshqaruvni qo'llashni kengaytirishra ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iboratdir.

Innovatsiya kabi hodisani o'rganish jarayonida ikki olim, ya'ni N.Kondratiev va avstriyalik J.A.Shumpeterning nomlarini unutmaslik kerak. Aynan Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" tadqiqotida innovatsiya tushunchasiga birinchi bo'lib ta'rif bergan.[3] U innovatsiyani tijorat muammolarini hal qilishga qaratilgan mavjud ishlab chiqarish omillarining ilmiy va tashkiliy birikmasi sifatida talqin qildi. Shumpeter bevosita innovatsiyalarda iqtisodiy tizimlarning rivojlanish manbasini payqadi. Chunki o'ziga xos kontent innovatsiyasi-bu o'zgarishlar, ular beshta tipik o'zgarishlarga e'tibor berib, ta'kidlagan:

1. Yangi texnologiyalar, yangi texnologik jarayonlar yoki yangi ishlab chiqarish bozorlarini ta'minlash;
2. Yangi xususiyatlarga ega mahsulotlarni joriy etish;
3. Yangi xom ashyolardan foydalanish;
4. Ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarishni moddiy-texnik ta'minotidagi o'zgarishlar;
5. Yangi bozorlarning paydo bo'lishi.

Bundan tashqari, u innovatsiya tushunchasidan foydalanib, uni o'zgarishlar sifatida izohladi, uning maqsadi iste'mol tovarlarining yangi turlarini, yangi



ishlab chiqarishni va yangi ishlab chiqarishni tashkil etish shaklidagi transport vositalarini joriy etish va ulardan foydalanishdir. Innovatsiyalarni tavsiflashda Shumpeter bu jarayonda tadbirkorning rolini doimo ta'kidlab kelgan, chunki aynan tadbirkor harakatlantiruvchi kuch bo'lib, yangi ixtirolarni amaliyotga tatbiq etuvchi va mukofot sifatida foydani oluvchi hisoblanadi.

O'zbekiston sanoatida innovatsiyalardan foydalanish borasida yangi tendentsiya shakllandi. Bunga qadar, arzon ishchi kuchidan foydalangan holda tabiiy resurslarni qayta ishlash bilan bog'liq tarmoqlar ustunlik qilgan. Biroq, bugungi kunda O'zbekiston tabiiy resurslaridan foydalanishga tubdan yangicha yondashuvni maqsad qilgan. Buning yorqin namunasi yangi UzGTL zavodi tabiiy gazni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilganidir. Bu kabi yirik loyihalar tufayli O'zbekiston bosqichma-bosqich tabiiy gaz xomashyosi eksportidan voz kechib, neft mahsulotlari importini kamaytirmoqda. Bu esa, energetik mustaqilligimizni mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shilayotganidan dalolat beradi. Nafaqat O'zbekiston, balki MDH mamlakatlari ichida eng yirik investitsiya loyihalardan biri hisoblanadigan mazkur UzGTL majmuasi ham innovatsion ishlab chiqarish namunasi. Shuningdek, MDH hududidagi eng zamonaviy va innovatsiyalardan biri bu – korxonaning markaziy boshqaruv pulti va zavod markaziy laboratoriyasidir. Yangi korxonada GTL, ya'ni "gazni – suyuqlikka" texnologiyasi asosida yiliga 3,6 milliard metr kub tabiiy gazni qayta ishlash, 1,5 million tonna tayyor mahsulotlar – aviakerosin, dizel yoqilg'isi, nafta, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bunday zavod shu paytgacha jahonda faqat 4 ta davlatda – Qatar, Nigeriya, JAR va Malayziyada barpo etilgan. Bu yerda yiliga umumiy qiymati 1 milliard AQSH dollari yoki 12,8 trillion so'mdan ortiq import o'rnini bosuvchi neft mahsulotlari va uglevodorod xom ashyolari ishlab chiqariladi. GTL texnologiyasi asosida tabiiy gazdan qo'shilgan qiymatli mahsulotlar olish uch bosqichda amalga oshiriladi. Ushbu texnologiya asosida tayyorlangan zamonaviy yonilg'i turlari ekologik jihatdan sifatli va toza. Bu esa, o'z navbatida, bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan tabiatga zarar yetkazmaslik tamoyiliga ham mos tushadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, UzGTL zavodi O'zbekistonda uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlash sohasida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarning namunasi va mamlakatimiz neft-kimyosanoatining rivojlanish sur'atlarining bir ko'rsatkichi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, innovatsion tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan va ishlab chiqarish jarayoniga xorij tajribasini qo'llab, yangiliklar joriy etilgan



zamonaviy korxonalarda, an'anaviy korxonalariga nisbatan ish haqi 2-3 barobar, ish unumdorligi 2 barobar oshganligi, ayniqsa ishchi xizmatchilar turmush darajasining ilgoriga nisbatan sifati va farovonligi ta'minlanayotganligi bugungi innovatsion iqtisodiy islohotlarining ijobiy tomonlarini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojatnomasi. <http://uza.uz>.
2. Вертакова Ю.В. Симоненко Б.С. Управление инновациями: теория и практика. –М.: Высшее экономическое образование, 2008.
3. Borut Likar, co-editors Peter Fatur, Urshka Mrgole; translation Arslingue K.Jontar, TEFL, TBE. — 1st. ed. — El. knjiga. — Ljubljana INNOVATION management [Elektronskivir] Korona plus — Institute for Innovation and Technology, 2013.
4. Гончаренко Л.П., Олейников Е.А., Березин В.В. “Инновационный менеджмент” учебное пособие/М.: КНОРУС, 2005, — 544 с.
5. Зинов В.Г. «Менеджмент инноваций: кадровое обеспечение» Учебник — М.: Дело 2005 – 496 с.
6. «Инновационная экономика» А.А.Динкин и другие. – М.: Наука , 2001.
7. Мухамедьяров А.М. “Инновационный менеджмент” учебное пособие – М.:Инфра – М, 2006. — 127 с.

